

YAXSHIDAN BOG‘ QOLUR

(Miad Hakimovni Aziz Nesin hikoyalarini turk tildan o‘zbek tiliga qilgan tarjimalari misolida)



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7455051>

Shoxrullo QURBONMURATOV,

TDSHU 2-kurs magistranti.

Toshkent, O‘zbekiston. Tel: +99890 326 69 26;

E-mail: shoxrulloqurbonmurodov@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada turk yozuvchisi Aziz Nesinning “Şimdiki Çocuklar Harika”, “Bay duduk” asarlarini Miad Hakimov tomonidan o‘zbek tiliga qilingan tarjimasidagi tarjimon uslubi ko‘rib chiqildi. Maqolada asar tarjimasida tarjimon va muallif uslubini berilishi va bu borada nazariy fikrlar bilan tasdiqlashga harakat qilindi.*

Kalit so‘zlar: *tarjima, uslub, tasviriy vositalar, ifodaviy vositalar, personaj.*

Аннотация: *В статье рассматривается стиль перевода на узбекский язык произведений турецкого писателя Азиза Несина “Şimdiki Çocuklar Harika”, “Bay duduk” Миада Хакимова. В статье была сделана попытка сравнить стили автора и переводчика, выражены теоретические взгляды по некоторым вопросам перевода.*

Ключевые слова: *translation, стиль, изобразительные средства, выразительные средства, персонаж.*

Abstract: *The Article considered the works of the Turkish writer Aziz Nesin, “Şimdiki Çocuklar Harika”, “Bay duduk”, translator in translation by Miad Hakimov into Uzbek. In the article an attempt was made to give the style of the translator and author in the translation of the work and to confirm it with theoretical ideas in this regard.*

Key words: *перевод, style, pictorial means, expressive means, character.*

Yaxshidan bog‘ qolur, deydi xalqimiz. Yaxshi tarjimondan-chi? Albatta, avvalambor, ko‘z nuri va qalb qo‘rini, aqlu zakovatini, ta’bir joiz bo‘lsa, butun umrini sarflab yaratgan o‘ziga xos ilmiy maktabi qoladi. Tarjimon Miad Hakimov ham o‘z tarjimalari bilan ayni shunday maktab qoldirgan tarjimonlardandir.

Tarjima, xalqlar orasidagi madaniy va adabiy ko‘prik sanalغان badiiy tarjimaning qadimiy va yuksak san’at darajasiga yuksalishida tarjimonning iste’dodi va tarjimaning saviyasi muhim o‘rin tutadi. Bir so‘z bilan

aytganda tarjimashunoslik, tarjimonlik faoliyati juda muhim kasb sanaladi desak xato bo‘lmaydi, chunki bir tildan boshqa tilga o‘girib kitobxonga asl matndagi ma’noni, tassavurni yetkazib bera olish bu juda katta maxorat va masuliyat talab etadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Mustaqillik davrida ilm-fan sohasida salmoqli islohotlar amalga oshirilgan. Xususan, tarjima sohasida ham amaliy ishlar qilingan. Ko‘p adiblarimizning asarlari chet tillarga, chet el adiblarining asarlari ona tilimizga tarjima qilindi. Tarjimaning juda ko‘p usullari amaliyotda qo‘llanila boshlandi.

Ushbu maqolamizda o‘zbek kitobxonlariga turk tilidan o‘zbek tiliga qilgan tarjimalari orqali tanilgan tarjimon Miad Hakimovni bir qancha tarjimalarini misollar orqali tarjimonning maxoratini ochib beramiz. Ya’ni mashhur turk yozuvchisi Aziz Nesin hikoya va asarlarini o‘zbekchaga tarjima qilgan taniqli tarjimon Miad Hakimov tarjimalaridagi uslub haqida so‘z yuritamiz.

Babam, aʒzi alıŝmıŝ, her szn baŝında Ulan, Ulan be..., Vay anasını! Diye konuŝur. Yani dili biraz argoya kaçar. Fatoŝda, kimden ne duyarsa papaĝan gibi tekrarlıyor, ne grrse yle yapıyor, Fatoŝ'un babamı taklit ederek peltek peltek Ulan be... Vay anasını! Gibi szler sylemesine bizim evde her kes bayılıyor. (Aziz Nesin. Őimdiki Çocuklar Harika.). [1, 74].

Tarjimasi: *Dadamning qiziq odati bor har ikki gapning birida “ho‘v”, “voy zang‘aryey!” degan bo‘lmaq‘ur so‘zlarni ishlatib turadi. Fatosh bo‘lsa naq to‘tining o‘zi, kimdan nimani eshitsa, darrov shuni qaytaradi. U “ho‘v falonchi”, “voy zang‘aryey!” deb chuldirab qolsa, uydagilar o‘zlarida yo‘q suyunib ketishadi. (M. Hakimov tarjimasi. G‘aroyib bolalar). [2,157]*

Turkcha matnda: *“Ulan, Ulan be..., Vay anasını! Diye konuŝur.”*

Tarjimada esa, tarjimon o‘z uslubini qo‘llagan xolda shunday beradi. Tarjima: (“ho‘v”, “voy zang‘aryey!” degan bo‘lmaq‘ur so‘zlarni ishlatib turadi.) Bundan tarjimon uslubi ko‘rinib turibdiki, “Ulan, Ulan be... Vay anasını” kabi jumlaning tarjimada, “ho‘v”, “voy zang‘aryey!” diya aks ettirib kitobxonga juda tushunarli va tassavurga boy qilib tarjimada aks ettirganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shu kabi misollardan yana biri Aziz Nesin “Bay duduk hikoyasi”.

“Sazlar, ŝarkılar baŝladı. Biz de kafaları çekiyoruz. Garsonlar etrafımızda pervane olmuŝlar. Derken arkada bir grlt koptu. Sarhoŝlar

bir birlerine girdiler. Onlar bıçakları fora ederken bizim Musa da düdüğe asıldı. O aslant kesilmiş kavgacılar, düdüğün bir furt etmesiyle uyuz it gibi kuyrukların kısıp oturdular” (Aziz Nesin. Bay duduk). [3, 3]

Aziz Nesinning “Bay duduk” hajviy hikoyasi 1969-yilda Miad Hakimov tomonidan “Hushtak afandim” nomi bilan o‘zbek tiliga tarjima qilingan bo‘lib, unda tarjimon yozuvchi uslubi juda keng va yorqin ochib berilgan va hikoyadagi voqia kechinmalar to‘la to‘kis aks etirilgan. Tarjima: *“Bir payt o‘yin-kulgi boshlanib ketdi. Rohat qilib o‘tiribmiz. Ofitsantlar atrofimizda parvona. To‘satdan orqa tomonda shovqin ko‘tarildi. Mast-alast odamlar yoqa bo‘g‘ishib ketishdi. Ish pichoqqa borib taqalay deganida, Musa hushtak chalib yubordi. Hozirgina bir-biri bilan sherday olishishib turgan azamatlar churillagan ovozni eshitiboq, dumlarini qisib qolishdi”* (Miad Hakimov tarjiması. Hushtak afandim). [4, 11-12]

Tarjimada, tarjimon uslubi naqadar kitobxon uchun tushunarli va soda ekanligini bu kabi jumlalarda ko‘rishimiz mumkun “turkcha-Sazlar, şarkılar başladı” o‘zbekchada esa, *“Bir payt o‘yin-kulgi boshlanib ketdi”* albatta kitobxon bir o‘qishdanoq qo‘shiq kuylanib o‘yin kulgu ma’nosini berayotganini agnlaydi va o‘zida tasavvur qilishga ham ulguradi.

Geçen mektubumu postaya verdiğimin ertesi günü, Tabiat Bilgisi dersindeyken, okul müdürüyle birisi daha dershaneye girdi. Müfettişmiş, öğretmenimizle bir sure konuştuktan sonra, Oğuz'u derse kaldırdı. Sen Oğuz'u tanımazsın. Bizim okula bu yıl, dersler başladıktan sonar geldi; sen buradan gittikten sonra. Taşrada bir okuldaymış. Sonra İstanbul'a taşınmışlar. Daha okula ilk geldiği gün hepimizi şaşırttı. Neden, biliyormusun? Kedi gibi çevik bir çocuk daondan... (Aziz Nesin.Şimdiki Çocuklar Harika). [1, 53] Tarjiması: *Anatomiya darsida o‘tirgan edik, direktor bir odamni boshlab sinfga kirib keldi. Bilsak, inspektor ekan. Inspektor o‘qituvchimiz bilan allanimalarni gaplashib olgach, O‘g‘iz degan bolani o‘rnidan turg‘izdi. O‘g‘izni sen tanimaysan. Sendan keyin kelgan. Ilgari Tashrada turisharkan, shu yili Istambulga ko‘chib kelishibdi. Maktabga birinchi kelgan kuniyoq bu bolaga qoyil qoldik. Nimasiga qoyil qoldik, bilasanmi? O‘lgudek chaqqon bola ekan. Xuddi maymunning o‘zi-ya...* (M.Hakimov tarjiması. G‘aroyib bolalar). [2, 138-139]

Yuqorida keltirilgan asliyat parchasida O‘g‘uzning chaqqonligi, abjirligi “*mushuk*” ka yani «*kedi*» ga muqoyasa etilsa, o‘zbekcha tarjimada «maymun» ga qiyos etilgan. Chunki “*mushuk*” o‘zbek tilida chaqqonlik, abjirlik obrazini jonlantiruvchi jonivor emas. Aksincha, o‘zbek tilida sakrab, irg‘ishlab abjir harakatlar qiladigan odamni “*maymun*” ga o‘xshatish keng tarqalgan. Demak, tarjimon M.Hakimovning O‘g‘uzning chaqqonligi, abjirligini aks ettirishda “*mushuk*” o‘rniga “maymun” so‘zidan foydalanishi uslubining naqadar kuchli va tasirchanligi namoyon bo‘ladi.

Başka bir çocuk horoz gibi atıldı:

Asıl yalancı senin gibisine derler. Benim babam, bi kez bile sınıfının ikincisi olmamış. Hep sınıfının birincisiymiş. Anladınmı sen?

(Aziz Nesin.Şimdiki Çocuklar Harika). [1, 53]

Tarjima: *O‘zing ham aldoqchi ekansan. Mening dadam sinfda hecham qolmaganlar. Nuqul a‘lo o‘qiganlar. Tushundingmi? – dedi boshqa bir bola bo‘ynini cho‘zib.*

(M. Hakimov tarjiması. G‘aroyib bolalar). [2,101]

Bu jumlada ham tarjimon moxironalik bilan tarjima qilganiga guvoh bo‘lamiz. Ya’ni jumlanig boshida berilgan “*Başka bir çocuk horoz gibi atıldı*” ushbu so‘zni tarjimon jumlanı oxirida “*Tushundingmi? –dedi boshqa bir bola bo‘ynini cho‘zib*”. Ko‘rib turganimizdek turkcha jumlada “horoz gibi atıldı” jumlasini “*bo‘ynini cho‘zib*” shaklida bergan va tarjima o‘z aksini topib tarjimon uslubi yaqqol ko‘zga tashlangan. Shu o‘rinda shuni aytib o‘tishimiz kerakki, tarjimon har-bir tarjima qilayotgan asar va hikoyani kitobxonga asliyatdagi voqia va xodisalarni to‘la-to‘kis ochib bera olishdek mahorat, bilim va ma’suliyat kasb etadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu kabi voqea va xodisalarni ochib bera olishi bu tarjimadan har tomonlama yuqqori bilim ko‘nikma, keng fikirlashni talab qiladi.

REFERENCES

1. Aziz Nesin. Şimdiki Çocuklar Harika.–İstanbul: NesinYayınevi, 2005.
2. Aziz Nesin, “Ona tarbiyasi”. “Yangi asr avlodi”. T., 2017yil
3. Aziz Nesin. Bay duduk.–İstanbul: NesinYayınevi, 2005.
4. <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/aziz-nesin/aziz-nesin-xushtak-afandim-hikoya/>
5. TDSHU. “Yoshtarjımashunoslar maqolalar to‘plami”.T., 2017. 3-kitob 2-b

6. Mubarakova, D. (2022). Media matn tarjimasida lingvomadaniy va sotsiolingvistik aspektlar. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 26), 411-414.
7. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. *Theoretical & Applied Science*, (8), 107-110.
8. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND'S VARDAAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, (12), 374-377.
9. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. *History of Translation in India*, 431.
10. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 3(4).
11. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 534-543.